Yunusova Feruza Maxamadolim qizi	
O'quvchilarda milliy xarakter xususiyatlarini rivojlantirishning pedagogik aspektlari	1143
Hasanova Gulmira Hoshimjanovna	
Maktab yoshidagi o'quvchilarga she'riy asarlarni o'qitishga doir ayrim metodlar (O. Matjonning "Orolga yordam" she'ri asosida).....	1147
Alxiev Sitora Raximqul qizi	
Sport travmalaridan keyingi reabilitatsiyada jismoniy tarbiya vositalaridan foydalanishning nazariy va amaliy asoslari	1150
Begimqulov Oltiboy Jo'rayevich	
Demografik vaziyatning mohiyati va tarkibi	1155
Bomurodov Sanjar Bkmurodovich	
Problems of Developing the Terminology System of the Uzbek Language.....	1159
Dilnoza Yuldasheva Bkmurodovna	
Tarbiya darslarida guruh va jamoaviy o'yinlar orqali muloqot madaniyatini shakllantirish	1163
Menlibayeva Azima Oralbayevna	
Raqamlashtirilgan ta'limda talabalarni tanqidiy fikrlash asosida kommunikativ kompetentligini rivojlantirish texnologiyalari.....	1166
Nuritdinova Xurshida Narpulatovna	
Raqamli ta'lim vositalarining boshlang'ich ta'limdagi afzalliklari	1169
Sattorova Mohira	
The Importance of Teaching Physics Through Modern Educational Trends	1172
Sharofutdinov Ikboljon Usmonjon ugli	
Maktabgacha ta'lim pedagoglarining kasbiy rivojlanishida gender rollar nazariyasining amaliy ahamiyati	1176
Tolipova Noilaxon Nodir qizi	
Interfaol metodlar orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobxonlik madaniyatini shakllantirish	1183
Umida Bovanova Abdurahobovna, Bo'riboeva Navbahor Faxriddinov	
Zamonaviy ilg'or xorijiy tajribalar asosida qon aylanish tizimi mavzusini o'qitishning innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash imkoniyatlari	1186
Xaqberdiyeva Sh. T.	
Ingliz tili darslarida kreativlikni oshirishda kuzatiladigan muammolar va ularni yechishga doir pedagogik yondashuvlar.....	1190
Yusupov Lutfullo Sayitturayevich	
Informatika fanini o'qitishda qo'llaniladigan innovatsion ta'lim texnologiyalari ("Axborotlarni kodlash" mavzusi misolida).....	1194
Temirova Gulbahor G'ulomovna, Yusupova Nodira Nurdinova	
Boshlang'ich ta'limda o'quv veb-saytlari orqali til kompetentligini rivojlantirish	1201
Zokirova Sohiba Muxtoraliyevna, Muxammadjonova Diyorabonu Muzaffarjon qizi	
Innovatsion ta'lim sharoitida "maktabgacha ta'limda menejment" fanini o'qitishning didaktik imkoniyatlari	1204
Astanakulova Manzura Buribayevna	
Milliy qadriyatlar vositasida o'quvchilarni chet tili o'rganish qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasi.....	1209
Toshturdiyeva Xurshida Erkinovna, Elmurodova Dildora Erkinovna	
Talabalarda jismoniy sifatlarni rivojlantirishda individual yondashuvning nazariy asoslari	1212
Islomov Eldor Yusupovich	
Pedagogik jarayon subyektlarining intellektual imkoniyatlarini diagnostik o'rganish va korreksiyalash metodikasini takomillashtirish	1215
Sattorova Malikaxon Abdug'affor qizi	
Языковые изменения в русском языке XXI века: исследование новых слов, сленга, интернет-коммуникации, влияния англицизмов и глобализации на современный русский язык	1220
Марупова Дилфуза Давроновна	

Ta'lim jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarni mantiqiy fikrlashga o'rgatish.....	1226
<i>Adizova Nigora Baxtiyorovna, Bahodirova Mohinur Azamat qizi</i>	
Buxoro xonlariga pir bo'lgan Dahbediylar.....	1231
<i>Kandaxarov Anvarjon Xasanovich</i>	
Formativ baholash natijalaridan ta'lim sifatini yaxshilashda foydalanish.....	1236
<i>Mamatova Fazilat Ixtiyorovna, Jabborova Dilshoda Xolmamat qizi</i>	
Современные тенденции развития в подготовке юных волейболистов с использованием инновационных технологий.....	1239
<i>Имомов Сирожиддин Илхомович</i>	
Современное развитие гандбола, основы технико-тактической подготовки и методика обучения в кружках.....	1244
<i>Оринов Облакул Жумаевич</i>	
Теоретико-методические основы баскетбола и современные тенденции его развития.....	1248
<i>Ачилов Ойбек Хакимович</i>	
O'zbekistonda ekoturizmni rivojlantirishda sun'iy intellekt texnologiyalarining qo'llanishi: holat, muammolar va rivojlanish istiqbollari.....	1252
<i>Berdiyev Baxtiyor Sodiqovich, Raximjonova Maxliyon Zokirjon qizi</i>	
Sun'iy intellekt asosida talabalarning dasturlash kompetensiyalarini rivojlantirish.....	1257
<i>Saidov Usmon Bahron o'g'li</i>	
Современные методы устранения заикания у подростков.....	1260
<i>Абдухалимова Муниса Абдурашид кизи</i>	
O'quvchilarda innovatsion yondashuv orqali ma'naviy-axloqiy tarbiya berishning o'ziga xos xususiyatlari.....	1264
<i>Xamidova Shaxnoza Nuraliyevna</i>	
Iqtidorli futbolchilarni tanlab olishning nazariy asoslari.....	1268
<i>Salayev Taxirbek Kamiljanovich, Atajanov Adilbek Yuldashevich</i>	
Sun'iy intellektning talabalarda analitik fikrlashga ta'siri.....	1274
<i>Abduhakimova Muslima Bahodir qizi</i>	
Raqamli interpretatsiya: vizual tahlil kompetensiyasini rivojlantirishda immersiv texnologiya va kognitiv yuklanishni optimallashtirish.....	1277
<i>Anvarxo'jayeva Dilinur Otabek qizi</i>	
Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining sun'iy intellektidan foydalanish kompetensiyasini shakllantirish.....	1282
<i>Artikova Nargiz Shuxratovna</i>	
Ekologik turizmning tabiatga ma'naviy-estetik munosabatni rivojlantirish imkoniyatlari.....	1286
<i>Aymatov A. Q., Turayeva Dildora Shuhratovna</i>	
O'quvchilarda milliy tuyg'ularni shakllantirishning ilmiy-pedagogik asoslari.....	1289
<i>Begmatova Nasiba Safarbayevna</i>	
Katta maktabgacha yoshdagi bolalarda duduqlanishni korreksiyalashning pedagogik texnologiyasi.....	1293
<i>Boxodirova Gulasalxon Ibroximovna</i>	
Jismoniy tarbiya va sog'lomlashtirish mashg'ulotlarida lotin va yunon terminlarining o'ri.....	1296
<i>Burxonova Guyaxon Gulomovna</i>	
Ta'lim jarayonlarida sinergetik kompetensiyalash orqali integrativ yondashuvni amalga oshirish.....	1300
<i>Haqberdiyev Baxtiyor Rustamovich</i>	
Montessori metodikasining tarixi, tamoyillari va ingliz tilini ikkinchi til sifatida o'qitishdagi o'ziga xos usullari.....	1304
<i>Jo'raqulova Gulruh Murot qizi</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarning ijtimoiy-pedagogik kompetentligini rivojlantirish holati va muammolari.....	1307
<i>Karimov Ravshanbek Rizomatovich</i>	
Methodology for the Integrative Development of Students' Educational and Creative Activities in Teaching Fine Arts.....	1312
<i>Kurbanova Shohsanam Bakhodirjon kizi</i>	
Kurash sport turining jismoniy tarbiya tizimida tutgan o'ri va uning rivojlanish omillari.....	1315
<i>Mamadova Feruzaxon Mirzaaxmad qizi, Akbarova Nasibaxon Abdumalik qizi</i>	
Kurash sport turining texnik-taktik rivojlanishi va uning jismoniy tarbiyadagi pedagogik ahamiyati.....	1319
<i>Mamadova Feruzaxon Mirzaaxmad qizi, Eminjonova Zahro Dilmurodjon qizi</i>	
Bo'lajak tarbiyachilarning intellektual qobiliyatini falsafiy bilimlar asosida rivojlantirish shakllari.....	1323
<i>Mamatqulova Shaxnoza O'ktam qizi</i>	



Using Debate, Role-Play, and Drama as Tools for Developing Oral Skills in English	1326
Menglibekov Reynazar Mukhammetkarim-uli	
Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida supervayzerlik qobiliyatlarini rivojlantirishning psixologik determinantlari	1329
Mirzayeva Muhayyo Ruziyevna	
Methodology for Developing Patriotic Education in Students Through Ideas of National Heroism	1334
Nomanova Ma'rifat Abdillayevna	
Shaxsda kasbiy tafakkur namoyon bo'lishining psixologik mexanizmlari	1337
Olimova Fotima Botirovna	
Interaktiv ta'lim muhitida talabalarning badiiy-kompozitsion didini shakllantirish pedagogik mexanizmlari (rangtasvir fani misolida)	1341
Omonqulova Dildora Xusniddin qizi	
Triz va kreativ pedagogika: boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy muammolarni hal qilish qobiliyatini rivojlantirish	1348
Oltiqova Zulfiya Nurmaxamatovna, Fayzullayeva Nazokat Uchqunovna	
O'quvchilarni o'zbek xalq og'zaki ijodi namunalari vositasida vatanparvarlik ruhida tarbiyalash jarayonlarini takomillashtirish	1351
Qodirqulov Nodirbek Hamroqul o'g'li	
Bo'lajak muhandislarning loyihalash-konstruktorlik ko'nikmasini rivojlantirishning muhim yo'nalishlari (muhandislik ta'lim yo'nalishlari misolida)	1355
Salomov Ilhom Salimovich	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini PIRLS tizimi asosida baholashga o'rgatish	1359
Samidjonova Muxabbat Xoliqjonovna	
"Nurli maskan" ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida aniq va tabiiy fanlarni integrativ o'qitishning ijtimoiy-pedagogik zaruriyat sifatida	1362
Sobirova Mashxura Ubaydullayevna	
Sun'iy intellekt va simulyatsion o'yinlardan foydalanib iqtisodiy tafakkurni shakllantirish metodikasi	1365
Sodiqova Nigora Turayevna	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida virtual texnologiyalar vositasida axborot kompetentligini rivojlantirish tizimi	1368
Suvonqulova Aziza Abdurazzoq qizi	
Rahbarlarning psixologik farovonligi: oila-kasb muvozanati, oilaviy munosabat va kasbiy qoniqishning o'zaro ta'sir mexanizmlari	1371
Teshayev Sobit Sodik o'g'li	
Tibbiy ta'limda refleksiv ko'nikmalar: O'zbekiston va dunyo tajribasi	1374
Toshmatova Moxizatxon Inomidin qizi	
Boshlang'ich tayyorganlik bosqichidagi yosh voleybolchilarning mashg'ulot jarayonini texnik va taktik nazorat qilish metodikasi	1377
Xakimov Saydullo Tulanboyevich	
Kadrlarni boshqarishda strategik va tezkor qarorlar uyg'unligini ta'minlashning tashkiliy-boshqaruv asoslari	1380
D. A. Xodjimatrova	
Jismoniy imkoniyatlari cheklangan yoshlar uchun sport va jismoniy faollikning ahamiyati	1385
Zafar Xudaykulov	
Raqamli texnologiyalar va innovatsion metodlar asosida ta'lim samaradorligini oshirish	1388
Yusupova Munisa	
Texnologik ta'lim jarayonida ixtirochilik va loyihalashtirish kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik asoslari	1391
Zokirova Nargiza Akbarjonovna	
Til kompetentligining kognitiv tilshunoslik bilan aloqasi boshlang'ich sinflar misolida	1395
Zokirova Sohiba Muhtoraliyevna, Madazimova Muxlisa Abdurashid qizi	
Структура и основные характеристики креативности личности студентов педагогических вузов	1398
Уразова Марина Батыровна, Соибова Толифа Дилмуродовна	
Emotsional intellektni rivojlantirishning nazariy asoslari	1403
Yarmatov Raxmboy Baxramovich	
Maktabgacha ta'limda STEAM texnologiyasini joriy qilish orqali samaradorlikka erishish	1409
Bolibekov Alisher Abdusalomovich	

Muloqot madaniyati asosida liderlik fazilatlarini shakllantirishning samarali usullari	1412
Djumayeva Dildora Isroilovna	
Kompetentlik tushunchasi: o'qituvchilarning kasbiy kompetentligiga qo'yiladigan zamonaviy talablar. O'qituvchining shaxsiy va kasbiy sifatlari.....	1416
Hayitboyeva Nilufar G'anijonovna	
Tilshunoslikda lingvopoetikaning o'rganilishi	1421
Maxammatova Feruza Olimovna	
O'zbekistonda virtual muzeylar va ularning tarbiyaviy imkoniyatlari.....	1424
Voxidova Norposhshaxon Xabibullayevna, Yusupova Mohinur Ulug'bekovna	
Xalqaro ta'lim tajribasi asosida o'quvchilarda tafakkur erkinligini shakllantirishning zamonaviy yondashuvlari	1434
Maxammatova Ma'muraxon Jalilovna	
Tarbiya fanini o'qitish jarayonida talabalarda pedagogik taksonomiya ko'nikmalarini shakllantirish metodikasi.....	1438
Turdiyeva Shoxidaxon Anvardjanovna	
Tibbiyot texnikumi talabalari klinik tafakkurini shakllantirishning nazariy asoslari: konseptual yondashuvlar va ilmiy talqinlar	1443
Axmedov Marifxan Mamatxanovich	
Valeologik tamoyillarning maktabgacha ta'lim tizimidagi ahamiyati.....	1448
Begmatova M. T.	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida jonli va jonsiz tabiat haqidagi bilimlarni shakllantirish.....	1452
Umbarova Nasiba Xolboy qizi	
Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda fuqarolik kompetensiyasi dolzarb pedagogik muammo sifatida	1456
Djumaqulov Shuxrat Baxodirovich	
Oilada ota-ona va bola munosabatlaridagi pedagogik-psixologik omillar.....	1460
Exsonova Feruza Turdixo'jayevna	
Педагогико-психологические аспекты формирования социокультурной компетентности будущих учителей средствами музейной педагогики	1464
Marayimova Kibriyoxon Islomjon qizi	
Serebral falaj(bsf)tashxisli bolalarda respirator-nutq mexanizmlarining buzilishi va korreksion yondashuvlar.....	1469
Mehmonova Nodiraxon Yusufxon qizi	
Milliy harakatli o'yinlar talaba yoshlar tarbiyasida rivojlanishining zamonaviy roli va ahamiyati	1473
Mirzayev Dilshod Khamidovich	
O'smir qizlarda deviant xulqni profilaktika qilish	1477
Mo'minova Dilrabo Murodillayevna	
Arab tilshunosligida ma'no, tuzilma va bayon nazariyasining shakllanishi Sakkokiy qarashlari asosida tahlil.....	1481
Abdullayev Olimjon	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlari rahbar kadrlarining moliyaviy savodxonligini rivojlantirishning nazariy va amaliy jihatlari.....	1487
Yuldasheva Munisa Ibrohimovna	
Xorijiy tillarni o'qitishda ijtimoiy-madaniy kompetensiya	1492
Yormatova Gulnoz Qayumovna	
Developing Imagination and Narrative Thinking in Young Learners Through English Storytelling Activities.....	1497
Madjitova Oyshakhon Mukhammadganiyevna, Anvarova Muslima	
Effectiveness of Online Resources in Teaching Professional Vocabulary to Philology Students	1508
Yusupova Zarrina	
Modern Automotive Lexicon: Formation Processes, Semantic Fields, and Functional Usage	1511
Yuldasheva Mastona Muxubillayevna	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim-tarbiya jarayonini shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida tashkil etishda "Atrof va men" metodikasidan foydalanish	1514
Uralova Nurxon Maxadovna	
Chet tili bo'yicha A1, A2, B1 daraja bitiruvchilari tayyorgarligi darajasiga qo'yiladigan talablar (lingvistik kompetensiya) tahlili	1519
Tojiyeva Anora Baxtiyorovna	



Гендерных различия прокрастинации.....	1526
Рахмонова Гузал Жамшидовна	
A System of Software that Develops the Intellectual Potential of Students in Teaching Mathematics	1529
Toxirova Malika Muzaffar qizi	
O'rta maxsus o'quv yurtlari talabalarida muomala madaniyatini tarbiyalash ijtimoiy-pedagogik muammo sifatida	1535
Maxkamova Muborak Yusupovna	
Maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbar kadrlar zaxirasini shakllantirish mexanizmlarini takomillashtirish.....	1543
Raximova Zilola Alimbayevna	
Ona tili darsliklari ta'limi mazmunini lingvistik ekspertiza qilish metodikasi	1547
Majidova Aziza	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida davlat va jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikni rivojlantirish istiqbollari.....	1551
Sharipova Gulruxsor Nurkabilovna	
Oliy texnika ta'limida mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi qoidalarini o'qitishning innovatsion metodik asoslari	1554
Numonjonov Shoxzodbek Dilshodjon o'g'li	
STEAM tamoyillari asosida rivojlantiruvchi muhit yaratish	1558
Umarova Muqaddasxon	
Autistik spektr buzilishi: DSM-5 va ICD-11 tasniflari, tadqiqotlar va jamiyatdagi ahamiyati.....	1562
Tuxtayeva Maxfirat	
STEAM texnologiyasi asosida xorijiy til (ingliz tili) o'rgatish.....	1566
Teshaboyeva Zumradxon	
Cultivating Social-Emotional Learning (SEL) in Classrooms.....	1569
Choriyev Ilxom Kenjayevich	
Kutubxona-axborot muassasalarida kadrlar siyosatini amalga oshirishning huquqiy asoslari	1573
Mamatkabilov A. X.	
Sun'iy intellekt – speechace dasturi yordamida o'quvchilarning ingliz tilida talaffuz malakasini oshirish	1578
Nabiyeva Shahnoza Alijon qizi	
Tarixiy obidalar asosida tasviriy san'at talabalari ijodiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi	1583
Qurvanboyeva Diyora Muzaffar qizi	
STEAM ta'limining O'zbekistondagi rivojlanish istiqbollari.....	1588
Abdukarimova E'zoza Fazliddin qizi, Bayjigitova Dilorom Baxtiyarovna	
Oliy ta'lim tizimida jarayonlarning boshqarishning innovatsion texnologiyalari	1592
Uzaqov Nomozaali Hamdamovich	
Kimyoni o'qitish jarayonida virtual laboratoriyadan foydalanish	1596
Murodova Sitorabonu Bahodir qizi	
Raqamli platformalardan foydalanish asosida bo'lajak o'qituvchilarning media ko'nikmalarini shakllantirish	1599
Safarov Feruz Saminjon o'g'li	
Qoraqalpoq xalq an'analarini vositasida maktab o'quvchilarini an'anaviy tarbiyalash (Bo'zatov tumani maktablari misolida).....	1603
Dosjonova Nilufar Rustam qizi	
Modern Requirements for a Teacher's Pedagogical Skills in the Context of Digital Transformation in Education.....	1607
Abira Bakhramova	
Kichik maktab yoshdagi nutqida nuqsoni bo'lgan bolalar shaxslararo munosabatini korreksiyalashda ertak terapiyasidan foydalanish	1613
Nig'matova Nodirabegim Lutfillo qizi	
Talabalarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlash jarayonlarida bir qator tarkibiy komponentlarning uyg'un rivoji.....	1617
Mirzaxojayeva Dilrabo To'liqin qizi	
O'quv mashg'ulot guruhida musoboqa oldi mashg'ulotlar tuzilishi (badminton misolida).....	1621
Ismoilova Fotima Ismoil qizi	
Alohida ajratilgan o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berish davomida ularning ijtimoiy-emotsional kompetentligini rivojlantirish zaruriy omil ekanligi to'g'risida.....	1626
Qozoqboyeva Xanifaxon Shavkatjon qizi	

Methodological Foundations for Shaping the Creative Activity of Younger Pupils in Solving Mathematical Problems	1630
Dzhurakulova Adolat Khalmuratovna	
Jadidlar merosi asosida bo'lajak o'qituvchilarning ma'naviy dunyoqarashini faollashtirish metodini takomillashtirish	1638
Bekchanova Ozoda Otajon qizi	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida mustaqil ta'lim ko'nikmalarini shakllantirish orqali o'quv motivatsiyasini rivojlantirish.....	1641
Alibayeva Dildora Raxmatilla qizi	
Maktabgacha ta'limda steam texnologiyasini joriy qilish orqali samaradorlikka erishish.....	1644
Bolibekov Alisher Abdusalomovich	
Muloqot madaniyati asosida liderlik fazilatlarini shakllantirishning samarali usullari	1647
Djumayeva Dildora Isroilovna	
Kompetentlik tushunchasi: o'qituvchilarning kasbiy kompetentligiga qo'yiladigan zamonaviy talablar. O'qituvchining shaxsiy va kasbiy sifatleri.....	1650
Hayitboyeva Nilufar G'anijonovna	
Emotional Burnout of Teachers as a Factor Influencing Professional Activities	1655
Kamilova Nadira Gayratovna, Abdullaeva Nelufar Karimjanovna	
Методика развития профессионально-речевых компетенций будущих специалистов	1663
Комилова Мукаррам Кобилжоновна	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kreativ fikrlashni shakllantirishning pedagogik asoslari va samarali metodlari	1666
Koziyeva Fazilat	
Tilshunoslikda lingvopoetikaning o'rganilishi	1671
Maxammatova Feruza Olimovna	
Deviant xulq-atvor shakllanishining nazariy va eksperimental tadqiqotlar tahlili	1674
Xolmurotova Shoxista Mirzaliyevna	
IJF yangi qoidalarining dzyudochilar texnik arsenaliga ta'siri: 2020 va 2024-yilgi olimpiadalar qiyosiy tahlili.....	1677
A. T. Saydullayev	
Системный подход к внедрению мультилингвальных методов: разработка структурно-функциональной модели в педагогическом вузе	1681
Жумамуратова Юлдуз Бахтияровна	

SUN'IY INTELEKT – SPEECHACE DASTURI YORDAMIDA O'QUVCHILARNING INGLIZ TILIDA TALAFFUZ MALAKASINI OSHIRISH

Nabiyeva Shahnoza Alijon qizi

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada SpeechAce – sun'iy intellekt asosida ishlab chiqilgan talaffuz va nutq ravonligini baholash vositasining talabalarning ingliz tilidagi talaffuz ko'nikmalarini rivojlantirishdagi samaradorligi o'rganildi. Tadqiqot jarayonida SpeechAce dasturidan foydalangan tajriba guruhi hamda an'anaviy o'qitish usullariga tayangan nazorat guruhi tashkil etildi. Olingan natijalar tajriba guruhidagi talabalar talaffuz ko'rsatkichlari nazorat guruhi natijalariga nisbatan sezilarli darajada yuqori ekanligini ko'rsatdi. SpeechAce kabi sun'iy intellektga asoslangan vositalarni ta'lim jarayoniga integratsiya qilish til o'rganish samaradorligini oshirishi hamda ingliz tilini o'qitish va o'rganishda zamonaviy texnologiyalarni joriy etishga xizmat qilishi mumkin.

Kalit so'zlar: xorijiy til, talaffuz, SpeechAce, sun'iy intellekt, avtomatik nutqni tanish (ASR), til ko'nikmalari.

Abstract: This article examines the effectiveness of SpeechAce, an artificial intelligence-based pronunciation and fluency assessment tool, in improving students' English pronunciation skills. The study employed an experimental design involving an experimental group using SpeechAce and a control group relying on traditional teaching methods. The findings revealed that the experimental group achieved significantly higher pronunciation scores than the control group. The integration of artificial intelligence tools such as SpeechAce into the language learning process can enhance learning outcomes and facilitate the implementation of modern technologies in English language teaching and learning.

Key words: foreign language, pronunciation, SpeechAce, artificial intelligence, automatic speech recognition (ASR), language skills.

Аннотация: В данной статье рассматривается эффективность SpeechAce – инструмента оценки произношения и беглости речи на основе искусственного интеллекта – в развитии навыков произношения у изучающих английский язык. В ходе исследования был проведён эксперимент с использованием смешанных методов, включающий экспериментальную группу, работавшую с программой SpeechAce, и контрольную группу, обучавшуюся с применением традиционных методов. Полученные результаты показали, что показатели произношения в экспериментальной группе оказались значительно выше, чем в контрольной. Интеграция инструментов искусственного интеллекта, таких как SpeechAce, способствует повышению эффективности изучения языка и внедрению цифровых технологий в преподавание и изучение английского языка.

Ключевые слова: иностранный язык, произношение, SpeechAce, искусственный интеллект, автоматическое распознавание речи (ASR), языковые навыки.

KIRISH

Talaffuz – bu xorijiy tilni o'rganayotgan har bir o'quvchining samarali muloqoti uchun o'zlashtirishi lozim bo'lgan muhim til komponentidir. Afsuski, ko'plab holatlarda talaffuzni o'qitish e'tibordan chetda qoladi, chunki boshqa davlatlardagi kabi mamlakatimiz ta'lim tizimida ham xorijiy tillarni o'qitishda ishlab chiqarish ko'nikmalariga nisbatan qabul qilish ko'nikmalariga ustuvorlik beriladi. O'rta va maktab ta'limi bosqichlarida, shuningdek, nofilologik yo'nalishlarda asosan grammatika, o'qish va tinglash ko'nikmalariga e'tibor qaratilib, ishlab chiqarish ko'nikmalari, xususan gapirish va talaffuzga yetarlicha ahamiyat berilmaydi. O'quv dasturlari ko'pincha o'qib tushunish va grammatik aniqlikni rivojlantirishga yo'naltirilgan mashqlarga asoslanadi.

So'nggi yillarda talabalarining xorijiy tillarda, ayniqsa ingliz tilida muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishga e'tibor kuchayib borayotgan bo'lsa-da, talaffuz masalasi hanuz e'tibordan chetda qolmoqda. Ushbu til komponenti ko'pincha baholash va test tizimlarida ham yetarlicha aks ettirilmaydi. Bundan tashqari, talaffuz asosan audiolingvistik yondashuv doirasida takrorlash va taqlid qilish orqali qisqa va yuzaki tarzda o'rgatiladi. Nati-



jada, til o'rganuvchilar nutqning nozik jihatlarini chuqur anglab yetmaydi va talaffuzni faqat yuzaki darajada o'zlashtirib qoladi. Bunday takroriy va mexanik yondashuv esa o'quvchilarning o'rganish jarayoniga bo'lgan qiziqishini pasaytiradi. Bir necha yil davomida ingliz tilini o'rganishiga qaramay, o'quvchilar uchun hatto oddiy kundalik suhbatlarni olib borish ham qiyinchilik tug'diradi.

Talaffuzga yetarlicha e'tibor berilmasligi jiddiy oqibatlariga olib keladi. Bu holat nafaqat o'quvchilarning ingliz tilida samarali muloqot qilish qobiliyatini cheklaydi, balki ularning til o'rganishiga bo'lgan umumiy motivatsiyasi va qiziqishini ham pasaytiradi. Aksincha, talaffuzga tizimli va maqsadli e'tibor qaratish o'quvchilarning ingliz tilini o'rganishiga bo'lgan munosabatini ijobiy tomonga o'zgartirishi mumkin. Talaffuzni til o'qitish jarayonining markaziy tarkibiy qismiga aylantirish orqali o'quvchilar o'rganish jarayonida yuqori darajadagi motivatsiya va qoniqlik hissinini boshdan kechirishlari mumkin.

Mamlakatimizda eng keng tarqalgan xorijiy til ingliz tili hisoblanadi. Global muloqot sharoitida ingliz tili yetakchi til sifatida e'tirof etiladi va uni bilish bugungi kunda yoshlar uchun eng muhim hamda qimmatli kompetensiyalardan biri sanaladi. Ingliz tilini o'rganish jarayonida talaffuz muhim komponent bo'lib, u nutqning tushunariligi va muloqot samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Biroq ingliz tili bo'yicha mutaxassis bo'lmagan, ya'ni nofilologik yo'nalishlarda tahsil olayotgan talabalar cheklangan tajriba va mashq imkoniyatlari sababli aniq va to'g'ri talaffuzni egallashda muayyan qiyinchiliklarga duch keladi. O'zbekistondagi davlat va nodavlat oliy ta'lim muassasalarida turli fakultetlarda tahsil olayotgan, aksariyat hollarda ingliz tili mutaxassisi bo'lmagan talabalar ingliz tilini o'rganish darajasini oshirish uchun samarali vosita va metodlarga muhtojdir. Shunga qaramay, nofilologik yo'nalish talabalari auditoriya mashg'ulotlari doirasida tizimli va keng qamrovli talaffuz ta'limini olmaydi. Talaffuz ko'pincha faqat taqlid va takrorlash usullari orqali o'rgatiladi.

Bundan tashqari, an'anaviy talaffuz o'qitish jarayoni katta vaqt va mehnat talab etadi, chunki o'qituvchilar har bir talabaning individual talaffuz xatolarini aniqlashi va tuzatishi zarur bo'ladi. Natijada, talaffuz ko'pincha reaktiv yondashuv asosida o'rgatiladi, ya'ni faqat tinglovchi uchun tushunarsiz bo'lgan yoki sezilarli xatolar yuzaga kelgandagina tuzatish ishlari olib boriladi. Bunday reaktiv yondashuv esa yetarlicha samarali emas, chunki talabalar ilgari tuzatilgan talaffuz xatolarini takrorlashda davom etadi.

Mazkur muammolarni inobatga olgan holda, SpeechAce kabi avtomatik nutqni tanish (ASR) texnologiyalariga asoslangan vositalar oliy ta'lim muassasalari uchun samarali va istiqbolli yechim bo'lishi mumkin. Ushbu texnologiyalarni ta'lim jarayoniga joriy etish orqali talabalar shaxsiylashtirilgan va izchil talaffuz mashqlarini bajarish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu esa auditoriya mashg'ulotlariga bo'lgan ehtiyojni qisqartirish bilan birga, talabalarning umumiy til ko'nikmalari va muloqot samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Talaffuz til o'rganishning muhim tarkibiy qismi bo'lib, nutq egasining samarali muloqot qilish qobiliyatida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Fraser (2000) fikricha, aniq talaffuz so'zlovchining nutqi orqali tinglovchiga yetkazmoqchi bo'lgan xabarini to'liq va tushunarli tarzda ifodalashi uchun zarur shart hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, til o'rganish sohasida talaffuz kompetensiyasi ingliz tilidagi unli va undosh tovushlar hamda urg'u naqshlarini tinglovchilar uchun tushunarli tarzda aniq talaffuz qila olishni anglatadi, deb ta'kidlaydilar Celce-Murcia, Brinton va Goodwin (2010) o'z tadqiqotlarida. Derwing va Munro (2005) talaffuzda tushunarlikning ahamiyatini alohida qayd etib, asosiy maqsad ona tilida so'zlashuvchilar me'yorlarini mukammal taqlid qilish emas, balki samarali muloqotni ta'minlash ekanligini ta'kidlaydilar. Demak, ingliz tilidagi talaffuz kompetensiyasi muvaffaqiyatli muloqot uchun zarur bo'lgan ko'p qirrali ko'nikmalar majmuasini o'z ichiga oladi, jumladan tushunarlik, nutqni to'g'ri idrok etish va talqin qilish qobiliyati hamda til qoidalariga rioya qilgan holda aniq va ravon talaffuz qilish.

Derwing va Rossiter (2002) tadqiqotlari ingliz tilini xorijiy til sifatida o'rganish jarayonida talaffuz tinglovchi uchun nutqni tushunish darajasiga sezilarli ta'sir ko'rsatishini yaqqol namoyon etadi. Mukammal grammatika va boy lug'at zaxirasiga ega bo'lishga qaramay, noto'g'ri talaffuz turli tushunmovchiliklarga olib kelishi mumkin, bu esa til o'rganishning asosiy maqsadi bo'lgan kommunikativ kompetensiyani zaiflashtiradi, deya ta'kidlaydi tilshunos olim Levis (2005). Asosiy to'siqlardan biri o'quvchining ona tili bilan ingliz tili o'rtasidagi fonetik farqlardir. Masalan, o'zbek tilida ingliz tiliga nisbatan unli tovushlar diapazoni torroq bo'lib, bu holat o'zbekistonlik o'quvchilar uchun ingliz tilidagi unli larni to'g'ri farqlash va talaffuz qilishni qiyinlashtiradi. Ushbu fonetik tafovutni faqat maqsadli ta'lim va muntazam mashqlar orqali bartaraf etish mumkin.

Talaffuzni o'zlashtirish jarayonida psixologik omillarning ahamiyati Horwitz (2001) tomonidan batafsil o'rganilgan. O'quvchilar, ayniqsa o'z talaffuziga ishonchi past bo'lgan holatlarda, chet tilida gapirish jarayonida tashvish va uyatchanlikni boshdan kechiradilar. Bunday holat ishonchsizlikka va gapirishni mashq qilishdan qochishga olib keladi, natijada ularning til o'rganish jarayoni yanada sekinlashadi. Bundan tashqari, o'quvchilar ko'pincha ona tilidagi talaffuz qoidalarini ingliz tiliga ko'chiradilar, bu esa xatolarning yuzaga kelishiga sabab

bo'ladi. Masalan, o'zbek tilida ikkita unli tovush yonma-yon kelganda yozilganidek talaffuz qilinadi, ingliz tilida esa bu holat alohida fonetik qonun-qoidalar asosida amalga oshiriladi, masalan: ai – ei – wait.

Talaffuz mahorati til o'rganish natijalariga chuqur ta'sir ko'rsatadi. Derwing (2005) o'z tadqiqotlarida yaxshi talaffuzga ega bo'lgan o'quvchilar odatda gapirish qobiliyatiga nisbatan yuqori ishonch hosil qilishlarini, bu esa ularni ko'proq mashq qilishga va suhbatlarda faol ishtirok etishga undashini ta'kidlaydi. O'z navbatida, muntazam mashq qilish nutq ravonligi va umumiy til malakasining oshishiga olib keladi. Shuningdek, to'g'ri talaffuz tinglab tushunish qobiliyatini ham yaxshilaydi, chunki o'quvchilar tilning tovush tizimi va nutq namunalariga yanada moslashadi. Trofimovich va Isaacs (2012) yomon talaffuz, ayniqsa o'quvchining nutqi tez-tez noto'g'ri tushunilgan holatlarda, tushkunlik va motivatsiyaning pasayishiga olib kelishini ta'kidlaydilar. Ushbu holat til o'rganish jarayonida ishtirok darajasining kamayishiga va natijada o'quvchining rivojlanish sur'atining sekinlashishiga sabab bo'ladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Yurtimizdagi davlat ta'lim muassasalarida ingliz tili darslari asosan grammatika, o'qish va tinglash kabi ko'nikmalarga qaratilgan bo'lib, talaffuz masalasi ko'pincha e'tibordan chetda qolmoqda. Amaldagi o'quv dasturlarini belgilangan muddatda yakunlash bosimi va mashg'ulotlar jadvalining zichligi sababli o'qituvchilar talaffuzga faqat talaba aniq qiyinchilikka duch kelgan hollardagina e'tibor qaratadilar. Ko'pchilik talabalar o'qituvchi tushuntirishiga haddan tashqari bog'langan bo'lib, mustaqil o'rganishga yetarlicha odatlanmagan. Bu holat talaffuz bo'yicha tizimli va individual yordamning ahamiyatini yanada oshiradi. Kuzatuvlar natijasida shu narsa ma'lum bo'ldiki, talabalarning ingliz tili talaffuzini o'rganishda duch kelayotgan qiyinchiliklarini bartaraf etish hamda ularning o'z fikrlarini aniqroq ifodalashi va mustaqil o'rganish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladigan samarali ta'lim vositalarini dars jarayoniga joriy etish va ulardan unumli foydalanishni ta'minlash bugungi kunda dolzarb vazifa hisoblanadi.

Talaffuzni o'qitish va o'rganishda Avtomatik nutqni tanish (ASR) texnologiyasidan foydalanish orqali inson nutqi turli maqsadlar uchun mashina tomonidan tinglanadi va tahlil qilinadi. Masalan, iPhone qurilmalari uchun Siri, Android telefonlar uchun Google Assistant yoki Windows noutbuklari uchun Cortana yordamida foydalanuvchilar qurilmalariga og'zaki buyruqlar berishlari mumkin. Ushbu jarayonda mashinalar nutqni tinglaydi, tahlil qiladi va berilgan buyruqlarni bajaradi. ASR texnologiyasi, shuningdek, Kompyuter yordamidagi talaffuz ta'limi (CAPT) dasturlari orqali ingliz tilida talaffuzni o'qitish sohasida ham qo'llaniladi. O'rganuvchilar so'z, ibora yoki gaplarning talaffuzini CAPT dasturlariga yozib oladilar, shundan so'ng dastur ularning talaffuzining fonologik xususiyatlariga e'tibor qaratgan holda tahliliy fikr-mulohaza taqdim etadi.

Gorjian, Hayati va Pourkhoni (2013) Praat dasturidan foydalanish talabalarga urg'u va intonatsiya kabi muhim prozodik xususiyatlarni o'zlashtirishda samarali yordam berganini aniqlaganlar. Shuningdek, 2019-yilda Spaulding va Breazeal bolalar bilan robot orqali og'zaki muloqot qilish natijasida ularning savodxonlik va talaffuz ko'nikmalari yaxshilanganini ko'rsatgan tadqiqot o'tkazganlar. Bundan tashqari, ASR texnologiyasiga asoslangan inglizcha gapirish mashqlari ilovasi bo'lgan ElsaSpeak ham o'quvchilar tomonidan ijobiy baholangan bo'lib, ular ushbu ilovadan foydalanish orqali talaffuz ko'nikmalarida sezilarli ijobiy o'zgarishlar kuzatilganini qayd etganlar.

SpeechAce nutqni tanib olishga asoslangan API bo'lib, u nutq oqimi va talaffuzni baholash uchun mo'ljallangan. Uning asosiy xususiyati o'quvchining nutqini real vaqt rejimida baholash hamda bo'g'in va fonema darajasidagi xatolarni aniqlashdan iborat. SpeechAce API so'z va gap darajasidagi talaffuzni baholash, matn asosida nutq ravonligini tahlil qilish, shuningdek IELTS va PTE imtihonlarining nutq bo'limi ballarini taxmin qilish kabi turli nutq mashg'ulotlarini qo'llab-quvvatlaydi (Moxon, 2021). Bundan tashqari, u spontan javoblarni transkripsiya qilish va baholash, shuningdek grammatika va leksikani tahlil qilish imkoniyatiga ega. SpeechAce API har bir baholangan nutq uchun umumiy ball bilan birga, gap, so'z, bo'g'in va fonema darajasidagi xatolar bo'yicha batafsil kichik ballar ko'rinishida fikr-mulohaza taqdim etadi.

SpeechAce funksiyalari o'qituvchilar va foydalanuvchilar uchun qulay va tushunarli tarzda ishlab chiqilgan. Avval o'qituvchi topshiriq matnini kiritadi, so'ng foydalanuvchilar elektron qurilmalaridagi mikrofon yordamida o'z javoblarini yozib oladilar. SpeechAce nutqni tahlil qilib, talaffuz bo'yicha avtomatik fikr-mulohaza beradi. Ushbu platforma Moodle, Blackboard, Canvas kabi turli LMS tizimlari bilan integratsiyalashishi mumkin bo'lib, bu o'qituvchilarga o'quvchilarning qaysi nutqiy ko'nikmalarini rivojlantirish zarurligiga qarab topshiriqlarni moslashtirish imkonini beradi. O'qituvchilar o'quvchilarning nutqini tinglab, SpeechAce tomonidan taqdim etilgan fikrlarga o'z izohlarini qo'shishlari mumkin. Foydalanuvchilar talaffuz mashqlarini cheklanmagan miqdorda bajarishlari va SpeechAce platformasiga turli elektron qurilmalar orqali kirishlari mumkin.

SpeechAce tomonidan beriladigan fikr-mulohazalar ikki asosiy qismdan iborat. Birinchi qism foydalanuvchi nutqining ona tilida so'zlashuvchi modeliga yaqinligini 0%–100% oralig'idagi foiz ko'rsatkichida aks ettiradi. Foiz bahosiga qo'shimcha ravishda "Juda yaxshi! Siz ona tilida so'zlashuvchimisiz?", "Yomon emas", "Talaffuzingiz



noto'g'ri" kabi izohlar ham beriladi. Ikkinchi qismda foydalanuvchi nutqidagi alohida bo'g'in va fonemalarning batafsil tahlili taqdim etiladi. Foydalanuvchilar o'z talaffuzlarini namuna modellar bilan solishtirish imkoniyatiga ega.

Mazkur sun'iy intellektga asoslangan vositaning samaradorligini aniqlash maqsadida nofilologik yo'nalishda tahsil olayotgan talabalarning ikki guruhi ishtirokida tajriba o'tkazildi. Tadqiqot ishtirokchilarining har biri individual ID raqamlariga ega bo'lib, demografik tarkib 45% erkak va 55% ayol ishtirokchilardan iborat edi. Har ikkala guruh "Gateway – B2" darsligining 1–10-bo'limlari asosida ta'lim oldi va haftasiga uch marta 2 soatlik mashg'ulotlarda qatnashdi. Tajriba guruhida talaffuz mashg'ulotlari SpeechAce platformasi orqali amalga oshirildi, nazorat guruhida esa darslikka asoslangan an'anaviy usul qo'llanildi.

Tadqiqot dizayni tadqiqot savollariga javob berish maqsadida aralash usulli yarim eksperimental yondashuv asosida ishlab chiqildi. Ushbu yondashuv miqdoriy usullarni, ya'ni tajribadan oldingi va keyingi testlarni, sifatli usullar – so'rovnomalar va suhbatlar bilan birlashtirib, SpeechAce platformasining samaradorligi hamda talabalarning unga bo'lgan munosabatini har tomonlama baholash imkonini berdi.

SpeechAce platformasining talaffuz ko'nikmalariga ta'siri tajriba yakunida nazorat va eksperimental guruh o'quvchilarining talaffuz ko'rsatkichlaridagi o'zgarishlar orqali aniqlandi. Tajriba guruhidagi ishtirokchilar talaffuz mashqlarini SpeechAce yordamida bajardilar. Qog'oz asosidagi talaffuz topshiriqlarini SpeechAce platformasiga to'liq ko'chirish imkonini mavjud bo'lmagani sababli, tadqiqotchi platformada mavjud bo'lgan barcha imkoniyatlardan foydalangan holda qog'oz va SpeechAce asosidagi topshiriqlar o'rtasida maksimal darajada o'xshashlikni saqlashga harakat qildi. SpeechAce Moodle LMS tizimi bilan integratsiyalashganligi sababli, qog'oz asosidagi topshiriqlarga yaqin mashqlarni yaratish uchun qo'shimcha funksiyalardan foydalanildi.

Har ikkala guruh talaffuz ko'nikmalarini baholash maqsadida tadqiqotdan oldin va keyin fonemalar, urg'u, intonatsiya hamda fonemik transkripsiyaga qaratilgan 30 savoldan iborat yozma testlarni topshirdi. Yakuniy test "English Pronunciation in Use" o'quv qo'llanmasi asosida tuzilib, 50 savoldan iborat bo'ldi. Ushbu fonologik elementlar talaffuzni baholashning asosiy tarkibiy qismini tashkil etadi, chunki ular samarali muloqotning poydevorini yaratadi. Har ikkala test ham o'quv qo'llanmalarda keltirilgan javob kalitlari asosida baholandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Test natijalariga ko'ra, SpeechAce'dan foydalangan tajriba guruhi o'quvchilarida ingliz tilidagi talaffuz qobiliyatlari sezilarli darajada rivojlangan. Bu, o'z navbatida, ularning nutqiy ravonligi va muloqotga kirishish qobiliyatiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatgan.

Guruh nomi	Talabalar soni	Dastlabki natijalar (o'rtacha)	Yakuniy natijalar (o'rtacha)
Nazorat guruhi	26	64%	78%
Tajriba guruhi	26	63%	84%

Asosan taqlid va takrorlash usullari orqali ingliz tili talaffuzini o'rgangan talabalar sun'iy intellekt asosidagi talaffuz mashqlariga ijobiy munosabat bildirdilar. Ayniqsa, SpeechAce platformasi fonetik nutqni o'rganishda ta'limiy muhit yaratishi va talaffuzdagi qiyinchiliklarni bartaraf etishdagi samaradorligi uchun talabalar tomonidan 10 balldan 9 ball bilan baholandi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqot davomida sun'iy intellektga asoslangan ilovalarning o'quvchilarga xorijiy til talaffuzini o'rganishda qay darajada yordam berishi aniqlandi. Test natijalari tajriba guruhida talaffuz malakasi nazorat guruhiga nisbatan sezilarli darajada yaxshilanganini hamda SpeechAce dasturidan foydalanish samarali ekanini ko'rsatdi. Shu bilan birga, tadqiqot natijalari o'qituvchilar zimmasiga ham muhim mas'uliyat yuklashini ko'rsatadi. O'qituvchilar o'quvchilarning talaffuz malakasini rivojlantirishga bo'lgan qiziqishini o'z vaqtida aniqlab, ularni to'g'ri yo'naltira olishlari zarur.

Ishtirokchilarning zamonaviy texnologiyalar va sun'iy intellektga asoslangan ilovalar bilan tanishligi tajriba jarayonini ancha yengillashtiradi. Agar ushbu yo'nalishda muayyan qiyinchiliklar yuzaga kelsa, o'quvchilar bilan amaliy mashg'ulotlar tashkil etilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu jarayon talabalarning raqamli savodxonligini oshirish bilan birga, ularning mustaqil o'rganish ko'nikmalarini rivojlantirishga ham xizmat qiladi.

Bugungi kunda yashin tezligida rivojlanayotgan sharoitda sun'iy intellekt texnologiyalarining xorijiy tillarni mukammal o'rganish jarayonida yanada keng imkoniyatlar yaratishi kutilmoqda. Kelajakdagi tadqiqotlar til o'qitish jarayoniga Avtomatik nutqni tanish (ASR) tizimlarini integratsiya qilishning eng samarali pedagogik strategiyalarini aniqlashga, shuningdek, turli o'quvchilar kontingentini hisobga olgan holda ushbu tizimlarning boshqa til ko'nikmalari, jumladan tinglab tushunish va nutq ravonligiga ta'sirini o'rganishga yo'naltirilishi lozim.



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Celce-Murcia, M., Brinton, D., & Goodwin, J. (2010). *Teaching Pronunciation: A Reference for Teachers of English to Speakers of Other Languages*. Cambridge: Cambridge University Press.
2. Derwing, T., & Munro, M. (2005). Second language accent and pronunciation teaching: A research-based approach. *TESOL Quarterly*, 39(3), 379–397.
3. Fraser, H. (2000). Coordinating improvements in pronunciation teaching for adult learners of English as a second language. Canberra: DETYA (ANTA Innovative Project). Retrieved from <https://helenfraser.com.au/wp-content/uploads/ANTA-REPORT-FINAL.pdf>
4. Gorjian, B., Hayati, A., & Pourkhoni, P. (2013). Using Praat software in teaching prosodic features to EFL learners. *Procedia – Social and Behavioral Sciences*, 84. <https://doi.org/10.1016/j.sbspro.2013.06.505>
5. Horwitz, E. (2001). Language anxiety and achievement. *Annual Review of Applied Linguistics*, 21, 112–126. <https://doi.org/10.1017/S0267190501000071>
6. Levis, J. M. (2005). Changing contexts and shifting paradigms in pronunciation teaching. *TESOL Quarterly*, 39(3), 369–377. <https://doi.org/10.2307/3588485>
7. Moxon, S. (2021). Exploring the effects of automated pronunciation evaluation on L2 students in Thailand. *IAFOR Journal of Education*, 9(3), 41–56. <https://doi.org/10.22492/ije.9.3.03>
8. Nguyen, H. N. (2023). Teaching English sounds to Vietnamese secondary school students: From theories to applications using learner-centered methods. *International Journal of Language Instruction*, 2(1), 16–29. <https://doi.org/10.54855/ijli.23212>
9. Trofimovich, P., & Isaacs, T. (2012). Disentangling accent from comprehensibility. *Bilingualism*, 15(4), 905–916. <https://doi.org/10.1017/S1366728912000168>

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.